

**O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIGINI
TA‘MINLASH BO‘YICHA XALQARO HUQUQIY TASHABBUSLARI**

Marufjonov Abdullo Xasan o‘g‘li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti

1-bosqich magistranti

marufjonovabdullo7@gmail.com

ORCID:0009-0005-3577-0122

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2016–2025 yillarda O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha ilgari surgan tashabbuslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilgan yangi tashqi siyosat, BMT rezolyutsiyalari, Markaziy Osiyo davlat rahbarlari uchrashuvlari va mintaqaviy xavfsizlikka oid muhim hujjatlar o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston mintaqada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ilgari surilgan tashabbuslar terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik, iqlim o‘zgarishi va Afg‘oniston bilan bog‘liq muammolarga qarshi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot Markaziy Osiyoda hamkorlik va integratsiya jarayonlari tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Kalit so‘zlar (Keywords): Markaziy Osiyo, mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro huquq, O‘zbekiston tashabbuslari, BMT rezolyutsiyalari, maslahat uchrashuvlari, xavfsizlik konsepsiyasi, barqaror rivojlanish.

Kirish

Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy va geoeconomik nuqtayi nazardan jahon siyosatida alohida strategik ahamiyat kasb etuvchi hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu mintaqa Yevropa va Osiyo o‘rtasida muhim transport-kommunikatsiya yo‘laklarini birlashtiruvchi geostrategik makon bo‘lishi bilan bir qatorda, boy tabiiy resurslarga egaligi, shuningdek, murakkab tarixiy-siyosiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, mintaqada terrorizm, diniy ekstremizm, radikalizm, transchegaraviy jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya, suv resurslari taqsimoti bilan bog‘liq nizolar, iqlim o‘zgarishi, Orol dengizi ekologik inqirozi hamda Afg‘onistondagi beqaror harbiy-siyosiy vaziyat kabi ko‘p qirrali xavfsizlik tahdidlari mavjud bo‘lib qolmoqda. Ushbu omillar mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

1991 yilda mustaqillikka erishilgach, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishga harakatlar boshlandi. Islom Karimov tashabbusi bilan 1993 yilda Toshkent shahrida mintaqa davlatlari rahbarlari uchrashuvi o‘tkazildi. 1994 yilda “Turkiston – umumiy uyimiz” g‘oyasi ilgari surildi va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish bo‘yicha shartnoma imzolandi.

Keyinchalik bu hamkorlik kengayib, Tojikiston ham qo‘shildi va mintaqaviy xavfsizlik masalalari ham muhokama qilina boshlandi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish tashabbusi ilgari surildi va 2006 yilda Semipalatinsk shartnomasi imzolandi.

Biroq, siyosiy ishonchsizlik, chegaraviy muammolar va suv-energetika masalalaridagi kelishmovchiliklar sababli mintaqaviy integratsiya uzoq vaqt davomida sust rivojlandi. 2016 yilda

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi mintaqaviy siyosatda yangi bosqichni boshlab berdi. Uning tashabbusi bilan O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, pragmatizm va konstruktiv muloqot tamoyillariga asoslangan yangi yondashuv shakllandi. Mazkur siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, o‘zaro ishonchni tiklash va keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirish belgilandi.

Xususan, 2017 yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbus Markaziy Osiyoni “tinchlik, barqarorlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik hududi”ga aylantirishni nazarda tutadi. Ushbu konseptual yondashuv mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda yangi paradigma sifatida namoyon bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish va umumiy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish zaruratini asoslaydi.

Mazkur siyosat xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga, jumladan BMT Nizomining 2-moddasida mustahkamlangan davlatlar suvereniteti, hududiy yaxlitlik, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, shuningdek, ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga to‘liq mos keladi. Shu jihatdan, O‘zbekistonning tashabbuslari nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlik tizimi bilan ham uyg‘unlashgan holda shakllanmoqda.

Bundan tashqari, mazkur tashabbuslar Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda C5+1 formati kabi ko‘p tomonlama institutlar va muloqot platformalari doirasida izchil ravishda ilgari surilmoqda¹. Ushbu institutlar orqali xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan tashabbuslar o‘zaro muvofiqlashtirilmoqda hamda amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmoqda.

Natijada, so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch muhitining mustahkamlanishi, siyosiy muloqotning faollashuvi va ko‘p tomonlama hamkorlikning institutsionallashuvi kuzatilmoqda. Bu esa mintaqani barqaror va xavfsiz hududga aylantirish yo‘lidagi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekiston Respublikasining 2016–2025 yillar davomida ilgari surgan xalqaro-huquqiy tashabbuslarining normativ-huquqiy asoslari, rivojlanish dinamikasi (xronologiyasi) hamda ularning mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashdagi samaradorligini kompleks ilmiy baholashdan iborat.

Tadqiqot doirasida Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan tashqi siyosiy islohotlarning xalqaro huquq tizimidagi o‘rni va ahamiyati ham alohida e‘tibor markaziga qo‘yiladi. Xususan, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlash, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashishdagi roli tahlil qilinadi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy ilmiy savollarga javob izlanadi:

- 2016–2025 yillar davomida qaysi asosiy xalqaro va mintaqaviy hujjatlar qabul qilindi?
- Ushbu hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi va xalqaro huquq normalari doirasida mintaqaviy xavfsizlikning institutsional-huquqiy mexanizmlarini qanday mustahkamladi?
- Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish jarayonida qanday muammolar va cheklovlar yuzaga kelmoqda?

¹ Prezident Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi (2017). Available at: <https://president.uz>

- Kelgusida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash borasida qanday istiqbollar va rivojlanish yo'nalishlari mavjud?

Usullar - Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, unda zamonaviy huquqshunoslik va siyosatshunoslik fanlarining asosiy tadqiqot usullari qo'llanildi. Xususan, quyidagi metodlar tizimli ravishda qo'llanildi:

Kontent-analiz usuli - Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (Prezident.uz) hamda Tashqi ishlar vazirligi (MFA.uz) materiallari, shuningdek, 2025 yilda o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining VII maslahat uchrashuvi hujjatlari mazmunan tahlil qilindi. Ushbu usul orqali asosiy normativ-huquqiy g'oyalar, tashabbuslarning yo'nalishlari va ularning diskursiv ifodasi aniqlashtirildi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil - milliy qonunchilik hujjatlari, ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar hamda mintaqaviy darajadagi hujjatlarning o'zaro uyg'unligi va muvofiqligi tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali O'zbekiston tashabbuslarining xalqaro huquq tizimidagi o'rni va ularning normativ integratsiyasi baholandi.

Retrospektiv va xronologik tahlil - 2018–2025 yillar oralig'ida ilgari surilgan tashabbuslarning bosqichma-bosqich rivojlanishi, ularning evolyutsiyasi va institutsionallashuv jarayonlari o'rganildi. Ushbu usul tashabbuslarning vaqt omiliga bog'liq dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

Sifatli (kvalitativ) tahlil - xalqaro siyosiy va akademik manbalar, jumladan The Diplomat, Times of Central Asia va boshqa nufuzli tahliliy platformalarda e'lon qilingan materiallar asosida ekspert baholari va ilmiy yondashuvlar o'rganildi. Ushbu usul orqali mavzuning nazariy va amaliy jihatlari chuqurlashtirildi.

Natijalar va muhokamalar

O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tashabbuslari ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirildi: BMT doirasidagi universal xalqaro mexanizmlar va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik formatlari. Ushbu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasini yaratishda O'zbekistonning yetakchi rolini ta'kidlaydi.

BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari

2018 yil 22 iyunda qabul qilingan A/RES/72/283 «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» rezolyutsiyasi O'zbekistonning birinchi yirik tashabbusi bo'lib, mintaqaviy hamkorlikning huquqiy asosini yaratdi va Orol dengizi ekologik va ijtimoiy muammolarini xalqaro maydonga olib chiqdi².

Ushbu rezolyutsiya nafaqat mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotga qaratilgan birinchi kompleks xalqaro-huquqiy hujjat sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. 2022 yilda qabul qilingan «Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash» rezolyutsiyasi ham mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan³. Shu bilan birga, 2023 yilda ekologik xavfsizlik va resurslarni barqaror boshqarishga bag'ishlangan rezolyutsiya qabul qilinib, Markaziy Osiyo davlatlarini global ekologik masalalarda

² BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi A/RES/72/283 (22.06.2018). Available at:

<https://undocs.org/en/A/RES/72/283>

hamkorlikka jalb etdi³. Mazkur rezolyutsiyalar orqali O‘zbekistonning tashabbuslari xalqaro huquqiy institutlar bilan uyg‘unlashgan holda, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish bo‘yicha institutsional mexanizmlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari formati 2018 yilda Astanada boshlandi va mintaqaviy siyosiy muloqotning doimiy platformasiga aylandi. 2025 yil 15–16 noyabrda Toshkentda o‘tkazilgan VII uchrashuv eng muhim bosqich bo‘lib, ushbu jarayon orqali quyidagi yutuqlar amalga oshirildi:

- Ozarbayjon to‘liq ishtirokchi sifatida formatga qo‘shildi;
- «Markaziy Osiyo hamjamiyati»ni tashkil etish taklifi qo‘llab-quvvatlandi, bu esa mintaqaviy integratsiyani yangi institutsional bosqichga olib chiqdi.

Uchrashuvlar davomida qabul qilingan asosiy hujjatlar quyidagilar:

«Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik va barqaror rivojlanish konsepsiyasi» - xavfsizlikning ko‘p o‘lchovlilikini belgilab, terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik, iqlim o‘zgarishi va ekologik xavflarni birlashtirilgan yondashuv orqali nazorat qilish mexanizmlarini taklif qiladi⁴.

«Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdidlar katalogi va 2026–2028 yillarga mo‘ljallangan oldini olish chora-tadbirlari» - mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining huquqiy negizini yaratib, davlatlar o‘rtasida xavfsizlikni muvofiqlashtirish va oldini olish mexanizmlarini belgilaydi⁵.

Chegara va resurs masalalari bo‘yicha huquqiy kelishuvlar - 2025 yil 31 martda Xo‘janda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston Prezidentlari «Xo‘jand deklaratsiyasi»ni va uch tomonlama chegara tuzilishi bo‘yicha shartnomani imzoladilar. Bu mintaqada tarixiy chegara nizolarini hal qilish va suv hamda energetika resurslarini barqaror boshqarish bo‘yicha muhim qadamlardan biri bo‘ldi⁶. Boshqa mexanizmlar - Shanxay hamkorlik tashkilotining Regional antiterror tuzilmasi (Toshkentda), Markaziy Osiyo yadrosiz hududi konsepsiyasi (2006 yil shartnomasi), shuningdek 2022 yilda Toshkentda qabul qilingan BMT Global antiterror strategiyasining mintaqaviy rejasi ushbu tashabbuslarni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlarini mustahkamladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston tashabbuslari nafaqat mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, balki ekologik barqarorlik, resurslarni boshqarish, transchegaraviy xavflarga qarshi kurash va ko‘p tomonlama muloqotni rivojlantirish orqali Markaziy Osiyoda barqaror hamkorlikni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ularning institutsional va huquqiy mexanizmlari xalqaro huquq, BMT Nizomi tamoyillari va mintaqaviy shartnomalar bilan muvofiqlashtirilgan.

³ BMT rezolyutsiyalari to‘plami, jumladan 2022–2023 yillardagi ekologik va bog‘liqlik rezolyutsiyalari (UN Docs).

⁴ «Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi» (2025). Available at: <https://president.uz/en/lists/view/8676>

⁵ «Markaziy Osiyo xavfsizligiga xatarlar katalogi va 2026–2028 yillarga choralar» (2025). Available at: <https://president.uz/en/lists/view/8676>

⁶ Xo‘jand deklaratsiyasi va uch tomonlama chegara shartnomasi (31.03.2025). Available at: https://en.wikipedia.org/wiki/Khujand_treaty

Muhokama - O'zbekiston tashabbuslari xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga to'la mos keladi va Markaziy Osiyoda «yahli xavfsizlik» (comprehensive security) konsepsiyasini tizimli ravishda amalga oshirishga qaratilgan. Bu konsepsiya nafaqat mintaqaviy siyosiy barqarorlikni ta'minlash, balki terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik, ekologik xavf va iqlim o'zgarishlariga qarshi integratsiyalashgan yondashuvni tatbiq etishga xizmat qiladi.

2018 yilda qabul qilingan A/RES/72/283 rezolyutsiyasi mintaqaning Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi nufuzini oshirdi va Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro maydonda faol ishtirok etishga undadi. Ushbu rezolyutsiya mintaqaviy xavfsizlik masalalarini global kontekstda muhokama qilishga imkon yaratdi, ekologik va ijtimoiy barqarorlik masalalarini xalqaro tartibga kiritdi.

2025 yilda qabul qilingan «Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik va barqaror rivojlanish konsepsiyasi» esa xavfsizlikning institutsional negizini yaratdi. Ushbu konsepsiya soft law mexanizmi orqali mintaqaviy siyosiy va huquqiy normativlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu mexanizm mintaqaviy xavfsizlikni yanada kompleks yondashuv bilan boshqarishga imkon yaratadi va davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi.

Ijoby samara va yutuqlar

Chegara nizolarining hal qilinishi

2016–2025 yillar davomida mintaqadagi chegara nizolarining 90% dan ortig'i huquqiy kelishuvlar orqali muvaffaqiyatli hal qilindi. Bu O'zbekiston tashabbuslarining mintaqaviy barqarorlikka qo'shgan sezilarli hissasini ko'rsatadi.

Mintaqaviy hamkorlikning institutsionallashuvi

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari, kotibiyatning tashkil etilishi, «hamjamiyat» formati va Ozarbayjonning qo'shilishi orqali mintaqaviy institutlar barqarorlashdi. Bu jarayon nafaqat xavfsizlikni, balki iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni ham mustahkamladi.

Tashqi tahdidlarning kamayishi

Afsonistonni mintaqaviy loyihalarga jalb qilish orqali transchegaraviy xavf va terrorizm tahdidlarini kamaytirish bo'yicha samarali mexanizmlar yaratildi. Shu orqali mintaqada davlatlari o'rtasidagi xavfsizlikni qo'shma monitoring va hamkorlik asosida boshqarish imkoniyati kengaytirildi.

Qiyinchiliklar va cheklovlar

Hujjatlarning huquqiy majburiyligi pastligi
Ko'plab tashabbuslar soft law darajasida bo'lib, to'liq majburiy huquqiy kuchga ega emas. Bu esa ularni amaliyotga tatbiq etishda va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda cheklovlar yaratadi.

Tashqi kuchlarning ta'siri

Mintaqaga tashqi davlatlar va geosiyosiy aktorlarning aralashuvi tashabbuslarni amalga oshirish jarayonini murakkablashtiradi va ba'zan siyosiy muvofiqlikni sustlashtiradi.

Ekologik va iqtisodiy muammolarning to'liq qamrab olinmasligi

Resurslar, suv, energiya va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq masalalar hali ham mintaqaviy hamkorlik tizimida to'liq hal qilinmagan. Ushbu masalalar hamkorlikni yanada integratsiyalashgan va samarali qiladigan mexanizmlarning shakllanishini talab qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yuqoridan boshqariladigan (top-down) model samarali bo'lsa-da, jamiyatlar darajasidagi (bottom-up) hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasini amalga oshirishda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar bilan integratsiyalashgan yondashuv yanada samarali natija beradi.

Xulosa

2016–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan xalqaro tashabbuslar Markaziy Osiyoda xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Bu tashabbuslar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashish va mintaqada barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalar O‘zbekiston tashabbuslarini qo‘llab-quvvatladi va mintaqa davlatlarining xalqaro hamkorligini kengaytirdi. 2025 yil noyabr oyida Toshkentda o‘tkazilgan uchrashuv esa mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash uchun muhim hujjatlarni qabul qilish bilan yakunlandi.

Umuman olganda, O‘zbekiston tashabbuslari Markaziy Osiyoda uzoq muddatli xavfsizlik, barqaror rivojlanish va davlatlar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu hamkorlik yanada kengayib, mintaqada barqarorlikni mustahkamlashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi (2017). Available at: <https://president.uz>
2. BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi A/RES/72/283 (22.06.2018). Available at: <https://undocs.org/en/A/RES/72/283>
3. BMT rezolyutsiyalari to‘plami, jumladan 2022–2023 yillardagi ekologik va bog‘liqlik rezolyutsiyalari (UN Docs).
4. «Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi» (2025). Available at: <https://president.uz/en/lists/view/8676>
4. «Markaziy Osiyo xavfsizligiga xatarlar katalogi va 2026–2028 yillarga choralar» (2025). Available at: <https://president.uz/en/lists/view/8676>
5. Xo‘jand deklaratsiyasi va uch tomonlama chegara shartnomasi (31.03.2025). Available at: https://en.wikipedia.org/wiki/Khujand_treaty ; Astana Times va boshqa manbalar.
6. Push towards Regional Solidarity: Outcomes of the 7th Consultative Meeting (BISI, 09.12.2025). Available at: <https://bisi.org.uk/reports/push-towards-regional-solidarity-outcomes-of-the-7th-consultative-meeting-of-the-heads-of-state-in-central-asia>